«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI»
AKSIYADORLIK JAMIYATI (O‘zRVB) AKSIYADORLARINING
NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHI
91-SONLI BAYONIDAN
KO‘CHIRMA

Umumiy yig‘ilish Toshkent shahri, Sh. Rashidov shoh ko‘chasi, 4 uyda o‘zi kelgan holda yoki videokonferensaloqa rejimida “ZOOM” platformasida o‘tkazildi.

Yig‘ilishda kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlar ishtirok etdilar.

Yig‘ilish o‘tkazilgan sana:	2026-yil 6-mart
Ro‘yxatga olish boshlangan vaqt:	soat 14:45
Ro‘yxatga olish tugagan vaqt:	soat 14:55
Yig‘ilish yopilgan vaqt:	soat 15:50
Bayon tuzilgan sana:	2026-yil 10-mart

O‘zRVB aksiyadorlarining jami ovozlari soni – 1 069 600 ta.

Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki	- 536 200
«O‘zbekiston sanoat – qurilish banki» aksiyadorlik tijorat banki	- 119 000
O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	- 119 000
«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki	- 95 200
«Ipak Yo‘li» aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki	- 95 200
«Orient Finans» xususiy aksiyadorlik tijorat banki	- 61 600
O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki	- 43 400

Yig‘ilishda qatnashgan aksiyadorlar 1 069 600 ta ovozga ega bo‘lib, bu jami ovozlar sonining 100 foizini tashkil etadi.

KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. O‘zRVB sanoq komissiyasi a’zolarining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
3. O‘zRVB Kuzatuv kengashiga yangi nomzodlarni saylash.
4. O‘zRVBning o‘tgan yillar taqsimlanmagan foydasini taqsimlash.
5. O‘zRVBda 2025-yil uchun majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini aniqlash va u bilan shartnoma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

O‘zRVB aksiyadorlarining ovoz berish byulletenlari asosida O‘zRVB aksiyadorlari navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining quyidagi qarori qabul qilindi:

1. Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha:

O‘zRVB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamenti quyidagicha tasdiqlansin:

O‘zRVB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘zi kelgan holda yoki “O‘zRVB” AJ aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishlarida va kuzatuv kengashi yig‘ilishlarida videokonferens-aloqa rejimida ishtirok etish to‘g‘risida”gi Reglamentga muvofiq videokonferensaloqa rejimida “ZOOM” platformasida o‘tkazilsin va aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini olib borish, masalalarni ko‘rib chiqish tartibi quyidagicha tasdiqlansin:

- ma’ruzachilarga asosiy masalalar bo‘yicha chiqish uchun ajratilgan vaqt – 10 daqiqagacha;

- qo‘shimcha fikr bildirishlar va tortishuvlar uchun ajratilgan vaqt – 5 daqiqagacha;

- savol va javoblar uchun ajratilgan vaqt – 5 daqiqagacha.

2. Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha:

O‘zRVB sanoq komissiyasi 3 kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

– *Prokudina K.A. - Budjetlash va moliyaviy tahlil bo‘limi boshlig‘i – Bosh buxgalter*

– *Xudoyberdiyev J.B. - Boshqarma boshlig‘i*

– *Umurzakov O.E. - Bosh yuriskonsult*

3. Kun tartibidagi uchinchi masala bo‘yicha:

O‘zRVB Kuzatuv kengashi tarkibiga quyidagi nomzodlar kumulyativ ovoz berish natijalariga ko‘ra 2028-yil yakunlari bo‘yicha o‘tkaziladigan aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga qadar saylansin:

- **Zokirxo‘jayev Azizxon Axrarxonovich** - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori;

- **Sirajiddinov Nishanbay** - Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasi professori, i.f.d. - **mustaqil a’zo.**

4. Kun tartibidagi to‘rtinchi masala bo‘yicha:

O‘zRVBning o‘tgan yillar taqsimlanmagan foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin:

*- O‘zRVB ustav fondini o‘z kapitali hisobiga oshirish uchun – **135 107 368 421,05 so‘m;***

*- O‘zRVB aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining tegishli qaroriga qadar taqsimlanmasdan qoldirish uchun – **1 010 391 126,09 so‘m.***

5. Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

1. 2025-yil 20-iyundagi O'zRVB aksiyadorlari yillik umumiy yig'ilishi qarori (89-sonli bayon)ning to'qqizinchi masalasi bo'yicha qaror qismi, ya'ni *"O'zRVB moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha tuzilgan 2025 yil uchun moliyaviy hisobotlarini auditorlik faoliyati standartlari bo'yicha majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, shuningdek SMK, SYKning hisoblangan miqdorlarini tekshirish uchun "TTT-AUDIT" MChJ Auditorlik tashkiloti belgilansin va u bilan tegishli shartnoma tuzilsin hamda auditorlik xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasi 60 mln. so'm (QQS bilan) etib belgilansin"* degan 9-bandi bekor qilinsin.

2. O'zRVB moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha tuzilgan 2025-yil uchun moliyaviy hisobotlarini auditorlik faoliyati standartlari bo'yicha majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, shuningdek SMK, SYKning hisoblangan miqdorlarini tekshirish uchun "PKF MAK ALYANS" MChJ Auditorlik tashkiloti belgilansin va u bilan tegishli shartnoma tuzilsin hamda auditorlik xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasi **70 mln. so'm (QQS bilan)** etib belgilansin.

Yig'ilish raisi: imzo **N.M. Achilov**

Yig'ilish kotibi: imzo **O.X. Djurayev**

Bosh direktor: imzo **R.R. Usmanov**

Asliga ko'ra to'g'ri: R.R. Usmanov